

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA IQTISODIY MUAMMOLARNING BADIY TASVIRI: BUGUNGI KUN NUQTAI NAZARIDAN

Sobitova Soliha Soibjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” va “Dumli odamlar” hikoyalari iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. “O‘g‘ri” hikoyasida korrupsiya zanjiri va uning oddiy fuqaro hayotiga ta’siri, “Dumli odamlar” hikoyasida esa mamlakatning xalqaro maydondagi noto‘g‘ri tasviri va uning iqtisodiy oqibatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — Qahhor asarlarida tasvirlangan iqtisodiy muammolarning bugungi jamiyat bilan uyg‘unligini aniqlash va zamonaviy yechimlar haqida mulohaza yuritishdir.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, korrupsiya, iqtisodiy muammolar, badiiy tasvir, operatsion xarajat, rent-seeking, salbiylikka moyillik, ijtimoiy kapital, xalqaro imij.

Annotation: This article analyzes Abdulla Qahhor’s stories “O‘g‘ri” and “Dumli odamlar” from an economic perspective. The story “O‘g‘ri” examines the chain of corruption and its impact on ordinary citizens, while “Dumli odamlar” explores the misrepresentation of the country on the international stage and its economic consequences. The main goal is to identify the relevance of the economic problems depicted in Qahhor’s works to modern society and to discuss contemporary solutions.

Keywords: Abdulla Qahhor, corruption, economic problems, artistic depiction, operation cost, rent-seeking, negativity bias, social capital, international image.

Аннотация: В данной статье рассказы Абдуллы Каххара «Ўғри» и «Думли одамлар» анализируются с экономической точки зрения. В рассказе «Ўғри» рассматривается цепь коррупции и её влияние на жизнь обычных граждан, а в «Думли одамлар» — искажённое представление страны на международной арене и его экономические последствия.

Ключевые слова: Абдулла Каххар, коррупция, экономические проблемы, художественное изображение, альтернативные издержки, поиск ренты, негативное предубеждение, социальный капитал, международный имидж.

KIRISH

Adabiyot va iqtisodiyot turli fan sohalari bo'lishiga qaramay, ular jamiyat hayotida yuz berayotgan jarayonlarni o'rganish va aks ettirishda o'zaro bog'liqdir. Biroq chuqurroq nazar tashlasak, buyuk adiblar ko'pincha o'z davrining eng o'tkir iqtisodiy muammolarini badiiy so'z orqali ifodalay olganini ko'ramiz. O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qahhor ham bu borada istisno emas. Uning asarlari shunchaki badiiy asar sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks ettiruvchi hujjat sifatida ham o'qilishi mumkin.

Qahhor 1936-yilda yozgan hikoyalarida ko'targan muammolar — korrupsiya, mansabparastlik, noto'g'ri axborot tarqatish, oddiy insonlarning huquqsizligi — bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Bu holat Abdulla Qahhor asarlarida ko'tarilgan muammolarning bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Aynan shu sabab mazkur maqolada Abdulla Qahhorning “O'g'ri” va “Dumli odamlar” hikoyalari tanlab olindi: biri ichki tizimdagi korrupsiyani, ikkinchisi esa mamlakatning tashqi dunyoga qanday ko'rinishini masala qilib qo'yadi. Maqolaning

maqsadi shu ikki muammoni zamonaviy iqtisodiy tushunchalar orqali o'qish va ulardan bugun uchun qanday xulosa chiqarish mumkinligini ko'rsatishdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sifat tahlili (qualitative analysis) va qiyosiy tahlil (comparative analysis) usullaridan foydalanildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida Abdulla Qahhorning "O'g'ri" va "Dumli odamlar" hikoyalari tanlandi — bu tanlov tasodifiy emas: ikkala asar ham iqtisodiy muammolarni — korrupsiya va noto'g'ri xalqaro tasvirni — bevosita ko'taradi hamda bir-birini to'ldiradi.

Tahlil jarayonida hikoyalarning original matnlaridan iqtisodiy jihatdan ahamiyatli parchalar ajratib olindi va ular zamonaviy iqtisodiy tushunchalar — rent-seeking, transaction cost, negativity bias, investitsiya muhiti — nuqtai nazaridan izohlandi. Shu bilan birga, Qahhor davridagi ijtimoiy-iqtisodiy holat bilan bugungi O'zbekiston o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazildi.

Tadqiqotning asosiy yondashuvi — interdisiplinar: adabiy tahlil va iqtisodiy tahlilni birlashtirish orqali badiiy asar zamonaviy jamiyat muammolari kontekstida yangicha o'qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. "O'g'ri" hikoyasi tahlili

Parcha: *"Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yetmasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi..." [...] "Yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin «kichkinagina» sharti bor. Bu sharti kuzda ma'lum bo'ladi..."*

Qahhor hikoyani “Otning o‘limi itning bayrami” maqoli bilan boshlaydi — va bu tasodif emas. Qobil boboning musibati — yo‘qolgan ho‘kiz — atrofdagilar uchun fursatga aylanadi. Ellikboshi, amin, tilmoch, pristav — har biri bu musibatdan o‘z ulushini oladi. Birovning baxtsizligi tizim ichidagi “it”lar uchun haqiqiy bayramga aylanadi.

Birinchi parchada korrupsiyaning ildizi aniq ko‘rinadi: ellikboshi o‘z lavozimini sotib olgan, shu sababli uni “qaytarish” uchun odamlardan pul yig‘ishi tizimning yashirin qoidasiga aylangan. “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi” — bu nafaqat xalq maqoli, balki butun bir tizimning mohiyati. Har bir mansab — sotib olingan tovar, har bir xizmat — alohida narx talab qiladi. Ellikboshidan aminga, amindan tilmochga, tilmochdan pristavga — har bir bosqichda pul, tovuq, beda sarflanadi. Oxirida esa ellikboshining qaynatasi “mehribonlik” bilan ikki ho‘kiz beradi, lekin bu “muruvvat” orqasida ham yana bir shart, manfaat yashiringan bo‘ladi.

Mazkur vaziyat iqtisodiyotdagi transaction cost (operations xarajatlar) tushunchasining amaliy namunasidir: Qobil bobo yo‘qolgan ho‘kizini topish uchun sarflagan xarajat ho‘kizning o‘zidan ham, hatto yeridan ham qimmatga tushdi. Bundan tashqari, “rent-seeking” hodisasi ham yaqqol ko‘rinadi — mansabdorlar hech qanday real xizmat ko‘rsatmay, faqat lavozimlaridan shaxsiy boylik orttiradi.

Eng achinarli tomoni shuki, bu hikoya 1936-yilda yozilgan — lekin tasvirlangan manzara bugungi kunda ham tanish. Oddiy fuqaro o‘z huquqini himoya qilish uchun tizimga murojaat etsa, ko‘pincha xarajat huquqning o‘zidan qimmatga tushadi. Korrupsiya zanjiri shakl o‘zgartirgan bo‘lishi mumkin, ammo mohiyati bir xil qolmoqda.

2. “Dumli odamlar” hikoyasi tahlili

Parcha: *“Hech bo‘lmasa bironta dumli odamning suratini olib borsam deyman. Juda shov-shuv bo‘lar edi... Yordam va‘da qilolmaysizmi?” [...] “Mehmon apparatini bo‘ynidan oldi, jo‘jaxo‘rozga yaqin borib cho‘kkaladi; jo‘jaxo‘roz boshini ko‘tarib*

hayron bo'lib turganida bir necha marta suratga oldi. Choy ko'tarib kelayotgan xotin «yoy, suratga olaman desalar yaxshi tovuqlarimiz bor, bu kasal edi-ku», deganicha qolaverdi.» [...] «Samolyot Tojikistonga qarab yo'l oldi... balki chidamasdan Tojikistondayoq lentani chiqarar, chiqarsa dumli odamlar o'rnida o'zini ko'radi.»

Parchada jurnalistning maqsadi birinchi jumladan oshkora ko'rinadi: u “dumli odamlar” — ya'ni qoloq, ibtidoiy odamlar — suratini olish uchun kelgan. Gulzorlar, tarixiy yodgorliklar, mehmondo'st odamlar — bularning hech biri uni qiziqitirmaydi. Aksincha, kasal jo'jaxo'roz, iflos anhor, o'lib yotgan it — mana uning “xazinası”. Xotinning “yaxshi tovuqlarimiz bor, bu kasal edi-ku” degan gapi esa hikoyaning eng achchiq kulgili nuqtasi: oddiy inson hatto mehmonni yaxshi qabul qilishga harakat qiladi, ammo mehmon aynan yomonini izlaydi.

Bu — tasodifiy xatti-harakat emas, balki ongli niyat. Jurnalist mamlakatni faqat yomon tomoni bilan ko'rsatish orqali o'z gazetasi uchun “shov-shuv” yaratmoqchi. Bu bugungi axborot olamida “negativity bias” (salbiylikka moyillik) deb ataladigan hodisaning yaqqol namunasidir: yomon xabar yaxshi xabardan ko'ra ko'proq e'tibor tortadi, ko'proq sotiladi, ko'proq o'qiladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan bu juda jiddiy muammo. Mamlakatning xalqaro maydondagi noto'g'ri tasviri to'g'ridan-to'g'ri turizm iqtisodiyotiga, xorijiy investitsiyalarga va eksport imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Salbiy va noto'g'ri axborot mamlakatning investitsion jozibadorligi hamda turizm salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hikoyaning eng ta'sirchan zarba — jurnalistning o'zi “dumli odam” bo'lib chiqishi. U boshqalardan “dumlilik” izlagan, ammo oxirida lentada o'z surati chiqadi. Bu kinoya orqali Qahhor shunday savol tashlaydi: aslida kim qoloq — o'z mehmonini to'rga o'tqazib, shaftoli uzib bergan odaqlami, yoki faqat yomonlikni qidirib, yaxshilikni ko'ra olmaydigan jurnalistmi?

MUAMMO

Abdulla Qahhor “O‘g‘ri” hikoyasida tasvirlangan korrupsiya zanjiri — ellikboshidan aminga, amindan pristavga uzluksiz davom etuvchi manfaatlar tizimi — afsuski, bugungi kunda ham o‘z aksini topmoqda. To‘g‘ri, mustaqillikdan so‘ng davlatimiz bu borada ko‘plab islohotlar amalga oshirdi, tizimlar takomillashdi, nazorat mexanizmlari kuchaytirildi. Biroq ayrim davlat institutlarida korrupsiya bilan bog‘liq muammolar hali ham mavjudligi sir emas. Oddiy fuqaro o‘z qonuniy huquqini himoya qilish uchun murojaat etganda, ko‘pincha ikki xil yo‘ldan biri oldida qoladi: yoki “kerakli odamlarga” qo‘shimcha to‘lov qiladi, yoki ishi yillar davomida hal bo‘lmay osilib qolaveradi. Bu aynan Qobil boboning ahvolidan farq qilmaydi — shakl o‘zgardi, mohiyat bir xil qoldi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan korrupsiyaning zarari faqat bevosita pul yo‘qotish bilan cheklanmaydi. U investitsiya muhitini zaiflashtiradi, tadbirkorlik faolligini pasaytiradi va iqtisodiy o‘shishning asosiy to‘sig‘iga aylanadi. Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish sur‘ati sezilarli darajada past bo‘ladi. Demak, korrupsiya — bu faqat axloqiy muammo emas, balki bevosita iqtisodiy muammo.

“Dumli odamlar” hikoyasidagi muammo esa bugungi axborot texnologiyalari davrida yanada keskinlashgan. Qahhor davridagi jurnalist bir gazeta uchun surat olardi — bu tasvirning ta’sir doirasi cheklangan edi. Hozir esa Instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda bitta salbiy video yoki noto‘g‘ri talqin qilingan rasm bir zumda millionlab odamga yetib borishi mumkin. Ba’zi xorijiy bloggerlar va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari mamlakatimizning faqat salbiy tomonlarini ko‘rsatib, ataylab noto‘g‘ri tasvir yaratishga urinadi — xuddi hikoyamizda jurnalist gulzorni chetlab o‘tib, kasal jo‘jaxo‘rozni suratga olgani kabi.

Bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm iqtisodiyotiga va xorijiy investitsiyalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda turizm sohasida katta yutuqlarga erishib,

dunyo sayyohlarini o'ziga jalb qilayotgan bir paytda, bunday noto'g'ri tasvirlar mamlakatning xalqaro obro'siga va iqtisodiy rivojlanishiga bevosita zarar yetkazadi.

YECHIM

“O'g'ri” hikoyasida tasvirlangan korrupsiya zanjirining bugungi kundagi davomiga qarshi kurashda ikki yo'nalishda harakat qilish zarur.

Birinchidan, jazo choralarini kuchaytirish. Korrupsiya — bu faqat axloqiy nuqsondan emas, balki ko'pincha jazosizlik hissidan kelib chiqadi. Qobil boboning ho'kizini “yeb qo'ygan” ellikboshi, amin va pristav o'z harakatlarining oqibatidan qo'rqmagan, chunki tizim ularni himoya qilgan. Bugungi kunda ham jazolar qanchalik qat'iy va muqarrar bo'lsa, mansabdorlar korrupsiyadan shunchalik ko'proq chekinadi. Bu borada nafaqat jazo miqdori, balki jazoning muqarrarligi muhim — ya'ni har bir korrupsiya holati albatta aniqlanishi va jazoga tortilishi kerak.

Ikkinchidan, va balki eng muhimi — raqamlashtirish. Bugun davlatimiz barcha tizimlarni raqamlashtirishga kirishgan, va bu juda to'g'ri yo'nalish. Raqamli tizimda inson omili minimallasadi, shu bilan birga korrupsiya uchun “bo'shliq” ham torayadi. Qobil bobo o'z muammosini hal qilish uchun ellikboshi, amin, tilmoch va pristavdan o'tishi kerak bo'lgan. Agar bu jarayon bugun raqamli tizim orqali amalga oshirilganida, hech kim hech kimga “tekinga mushuk oftobga chiqmaydi” deyoymasdi. Odam odamni aldashi mumkin, lekin odam tizimni alday olmaydi.

“Dumli odamlar” hikoyasida ko'tarilgan muammoga kelsak, eng samarali javob — haqiqiy tasvirni o'zimiz ko'rsatish. Jurnalist kasal jo'jxo'rozni suratga olganda, xotin “yaxshi tovuqlarimiz bor” degan edi — aynan shu ruh bilan harakat qilish kerak. Ijtimoiy tarmoqlarda, ayniqsa Instagram kabi platformalarda mamlakatimizning haqiqiy go'zalligi, tarixi, mehmondo'st odamlari va iqtisodiy yutuqlari faol targ'ib qilinishi lozim. Bitta salbiy suratga javoban o'nta haqiqiy, chiroyli tasvir — bu eng kuchli muqobil.

Bundan tashqari, turizmni rivojlantirish o‘z-o‘zidan eng yaxshi javob bo‘ladi. Dunyoning turli burchaklaridan kelgan sayyohlar O‘zbekistonni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgach, hech qanday noto‘g‘ri tasvir ularni chalg‘ita olmaydi. Haqiqat — eng kuchli argument.

Yuqorida tahlil qilingan ikki hikoya — “O‘g‘ri” va “Dumli odamlar” — bir qarashda bir-biridan farqli mavzularni ko‘taradi. Biroq chuqurroq nazar tashlaganda, ularda bitta umumiy g‘oya ko‘rinadi: jamiyatdagi muammolar — korrupsiyami yoki noto‘g‘ri tasvir bo‘lsinmi — doimo eng zaif tomonning zimnasiga tushadi. “O‘g‘ri”da bu Qobil bobo, “Dumli odamlar”da esa mamlakatning o‘zi.

Qahhorning dahosi shundaki, u bu muammolarni 1936-yilda, ya’ni deyarli bir asr oldin ko‘ra bilgan. Ammo asarlarini o‘qib, eng ko‘p ta’sirlanadigan jihat — bu muammolarning haligacha dolzarbligida. Korrupsiya zanjiri shakl o‘zgartirgan, jurnalistning fotoapparati o‘rnini smartfon va ijtimoiy tarmoqlar egallagan, lekin mohiyat o‘zgarmagan.

Shu bilan birga, muhim farq ham bor: bugungi O‘zbekiston bu muammolarni tan olib, ularga qarshi faol kurashmoqda. Raqamlashtirish islohotlari, antikorrupsiya agentligi, turizmni rivojlantirish dasturlari — bularning barchasi to‘g‘ri yo‘nalishda qo‘yilgan qadamlar. Qahhor asarlari esa bu yo‘lda bizga ko‘zgu vazifasini o‘taydi: qayerdan kelganimizni unutmaslik va qayoqqa borayotganimizni aniq bilish uchun.

XULOSA

Abdulla Qahhor asarlari — bu shunchaki o‘tmish adabiyoti emas. “O‘g‘ri” va “Dumli odamlar” hikoyalari bugun ham, ertaga ham o‘qilishi va o‘rganilishi kerak bo‘lgan asarlar, chunki ularda ko‘tarilgan muammolar zamon sinovidan o‘tib, bugungi jamiyatning ham ko‘zgusiga aylangan.

Korrupsiya — bu faqat pul yo‘qotish emas, balki jamiyatga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish. Noto‘g‘ri xalqaro tasvir — bu faqat obro‘ masalasi emas, balki bevosita

iqtisodiy zarar. Qahhor bu ikki muammoni badiiy soʻz orqali shunchalik aniq tasvirlaganki, uning asarlarini iqtisodiyot darsligi sifatida ham oʻqish mumkin.

Yechim esa Qahhorning oʻz asarlarida yashiringan: “Dumli odamlar”dagi gid kabi — haqiqatni koʻrsatishdan qoʻrqmaslik, “Oʻgʻri”dagi Qobil bobo singari emas — tizimga koʻr-koʻrona ishonmaslik, balki uni oʻzgartirish uchun kurashish. Bugungi Oʻzbekiston aynan shu yoʻlda — va Qahhor asarlari bu yoʻlda eng yaxshi yoʻldoshlardan biri boʻlib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Abdulla Qahhor. Anor: qissa va hikoyalar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 200 b.
2. Abdulla Qahhor. Asarlar toʻplami. 5 jildlik. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2011.
3. Abdurahmonova M.I. Abdulla Qahhor hikoyalarida tasviriy ifodalar // Ilmiy maqolalar. DOI: 10.5281/zenodo.7546843
4. Qoʻchqarova A.U. Abdulla Qahhor asarlari tahlili // Fargʻona davlat universiteti talabalarining ilmiy maqolalari toʻplami.
5. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “Merius”, 2004.
6. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent.
7. Jahon banki. Corruption and Economic Growth. – Washington: World Bank Publications, 2020.